

SO‘FIYLIK AN’ANALARINING ANTROPOLOGIK JIHATLARI

Raximova Yulduz Dilmurod qizi

Samarqand davlat chet tillari instituti

1-bosqich tayanch doktoranti

yraximova@gmail.com

+998972233122

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada so’fiylik tushunchasi va uning tamoyillarining kleib chiqish tarixi, so’fiylarga xos bo’lgan axloqiy jihatlar haqida so’z boradi. Shuningdek, adabiy manbalarda so’fiylar haqyotiga oid haqiqatlar hamda tarbiyaviy ahamiyatga ega bo’lgan rivoyatlar haqida so’z boradi. Tasavvuf olimlarining so’fiy atamasining kelib chiqish taxminlari haqida mulohazalar aytib o’tilgan. Shu bilan birga, so’fiy bo’lish talablari va qoidalari, so’fiylarning turlari haqida keng ma’lumot berib boriladi.

Kalit so’zlar: so’fiylik, tasavvuf, zohidlar, safo, shayxlar, Najmuddin Komilov , “Futuvvatnomayi sultoniy”, “Tazkirat ul awliyo” , “Nasoyim ul muhabbat”

АННОТАЦИЯ

В этой статье обсуждается концепция суфизма и история возникновения его принципов, этические аспекты, характерные для суфииев. В ней также обсуждаются истины о суфиях в литературных источниках и повествованиях, имеющих образовательное значение. В ней обсуждаются предположения суфийских ученых о происхождении термина «суфий». В то же время в ней дается обширная информация о требованиях и правилах суфизма, а также о типах суфииев.

Ключевые слова: суфизм, аскеты, чистота, шейхи, Наджмиддин Камилов, «Футувватномайи султаний», «Тазкират ул аулия», «Насаим ул муhabbat».

ABSTRACT

This article discusses the concept of Sufism and the history of the emergence of its principles, the ethical aspects characteristic of Sufis. It also discusses the truths about the Sufis in literary sources and the narratives of educational importance. It discusses the assumptions of Sufi scholars about the origin of the term Sufi. At the same time, it provides extensive information about the requirements and rules of being a Sufi, and the types of Sufis.

Keywords: Sufism, Sufism, ascetics, purity, sheikhs, Najmuddin Kamilov, “Futuvvatnomayi sultaniy”, “Tazkirat ul awliya”, “Nasayim ul muhabbat”

KIRISH

VIII asrning o'rtalarida paydo bo'lgan tasavvuf olamining tadrijiy taraqqiyotida zohidlik tushunchasi zid ravishda so'fiylar va ularning falsafiy qarashlari kurtak yoya boshladi. Zohidlarning tarkidunyo qilishiga sabab Allohning roziligidagi erishib jannatdan umidvorlik bo'lsa, so'fiylar esa na do'zaxning olovidan qochish, na jannatdan umidvor bo'lganlar. So'fiylar uchun yashashdan yagona maqsad- Haqning visoliga erishish.

Buning yorqin namunasi sifatida mashhur so'fiy ayol Robiyat ul Adviyani misol qilishimiz mumkin. U o'z munojotlarida Allohdan faqatgina uning jamoliga erishishni Nasib etishini tilab nola qilar edi.

So'fiylarning paydo bo'lishini Najmuddin Komilov shunday ta'riflaydi: "... shu tariqa , dunyodan ko'ngil uzgan, ammo zohidlarga o'xshamaydigan, "bir nazar bilan tuproqni kimyo etadigan (Hofiz Sheroziy), zehn-u zakovat, aql-u farosatda tengsiz, ammo o'zga mutafakkirlar, faylasuflardan ajralib turadigan, shariat ilmini suv qilib ichgan, toat-u ibodatda mustahkam, lekin oddiy dindorlardan farqlanadigan ajoyib xislatli odamlar toifasi paydo bo'lган ediki, ularni ruh kishilari deb atardilar. Bunday odamlarning fe'l-atvori, yurish-turishi, horiqulodda (odatdan tashqari) so'zlari va ishlari atrofdagilarni hayratga solar, ba'zilarining g'aybdan bashorat beruvchi karomatlari, sirli mo'jizalari aqllarni lol qoldirardi. Ularni ahdulloh, avliyo, ahdi hol, ahli botin, arbobi tariqat, darvesh, qalandar, faqir degan nomlar bilan tilga olardilar." [1]

MUHOKAMA VA NATIJALAR

So'fiy atamasining bunday nom olishining taxminiy qarashlarini manbalarga tayanib umumlashtiramiz:

- a) "Saf" so'zidan kelib chiqqan, Allohning jamoliga erishishni istaganlarning birinchi safida so'fiylar turgan.
- b) "suffa" so'zidan hosil bo'lgan deb taxmin qiladilar; Asxobi suffa deb nomlangan toifa vakillari payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v) tirikligidayoq tarki dunyo qilgan taqvodor kishilar sanalgan. So'fiylar shunday kimsalarga ortidan ergashgan deb taxmin qiladilar.
- c) "safo" so'zidan kelib chiqqan deb hisoblaydilar. Chunki so'fiylarning qalbi pokiza, sof, beg'ubor ekanligi asos qilib olingan.
- d) Ba'zi olimlar "suhuf" so'zidan kelib chiqqan; suhuf- biror bir narsaning xulosasi, "bu jamoa xalqning xulosasi bo'lganligi sababli ularni so'fiy deganlar, deb yozadilar" [1]
- e) Abu Rayhon Beruniy yunoncha "suf" ya'ni faylasuf so'zning so'nggi bo'g'inidan olingan deb hisoblaydi.

f) Arabcha “suf” so’zidan olingan degan ehtimol mavjud; ushbu so’zning lug’aviy ma’nosi jun va jundan to’qilgan mato. So’fiylar ko’p hollarda jun chakmon yoki qo’y terisidan tikilgan po’stin kiyib yurishni odat qilganligi uchun so’fiy deb yuritishgan.

Husayn Voiz Koshifiy “Futuvvatnomayi sultoniy” asarida shunday deyiladi: “...ammo ma’lum bo’lishicha “tasavvuf” so’zi islomdan oldingi zamonda ham bo’lgan ekan. Birinchi bo’lib so’fiy degan nomni olgan odam Odam ato farzandlaridan biri- Shish edi deb naql qilinadi. Uning liboslari yashil sufdan(suf-jun mato) ekan va Shishdan keyin jun matodan keyin kiyib yuruvchilatni “so’fiy” deydigan bo’ldilar. O’zini shu toifaga mansub deb biladiganlarni tasavvuf ahli deb yuritadilar. Bas, sohib kamol so’filar ahvoliga talabgor bo’lib, astoydil intilganlarni mutasufiya deydigan bo’ldilar. [2]

Olim o’z fikrlarini davom ettirib, so’fiylarning 3 darajasini aytib o’tadi: “...agar o’zlariga tasavvuf nomini olgan mazkur toifa nechiga guruhga bo’linadi, deb so’rasalar, uch guruhga deb ayt; birinchisi- mustasuf. U qo’ldan-qo’lga o’tib yuradigan va mansab johga vosita bo’lgan mol-dunyo uchun o’zini darveshlarga o’xshatib yuradigan kishidir va uning hech bir martabasi yo’q, bundaylar to’g’risida yaxshi demishlar:

Sidqu safo yo’lini yurmay dag’dag’a buncha,
So’fiyu shayx nomini sotib valvala buncha!

Ikkinchisi -mutassuf. Bu maqsadning ilk manziliga yetgan odamdir. Uchinchisi so’fiy. U o’Zidan foni bo’lib, Haqqa boqiy bo’lgan, ya’ni o’Zidan kechib, Haqqa yetgan odamdir... So’fiylar 3 daraja-guruuhga bo’linadilar, ya’ni: muoshirlar, mutarasmlar va muhaqqiqlar. Muoshirlar (suhbatdoshlar, sheriklar) tasavvuf ahlining nuxislari va do’stlaridirlar.... Ammo mutarasmlar darveshlarning rasmu odati, suratlariga ergashadilar va zohirda darveshlarning so’zlari, ahvoliga taqlid qiladilar. Ularning Shiori: agar yaxshi bo’lsak, bizni darveshlar qatoriga qo’shsinlar va agar yomon bo’lsak darveshlarga bizni bag’ishlasinlar(ya’ni darveshlar tufayli mag’firat nuri nasib etsin). Bu guruhning darveshlar fayzi ta’sirida nasiba topishi ehtimoldan holi emas. Ammo muhaqqiqlar suf (jun kiyim) kiyib yuruvchi shunday bir jamodirlarkim, doim safoga intiladilar; nafsni jabru jafo iskanjasiga olib, dunyo molini tark etadilar va ezbilik yo’lida suluk bilan shug’ullanadilar....”

Husayn Voiz Koshifiy so’fiy so’zining 5ta ma’nosi haqida fikr yuritadi: “birinchidan, so’fiy zohirda qul, botinda (ma’noda) esa ozod bo’lgan kishi, ya’ni o’z zohirini toat-ibodat xizmatiga bog’lab, botinini barcha dunyoviy axloqlardan uzgan shaxsdir. Ikkinchida, so’fiy hech narsa bandiga giriftor emas va hech narsa uning bandiga giriftor emas va hech narsa uning bandiga giriftor emas. Bu ikki tushunchaga

ishoradir: biri ixlos, ya’ni bandaning bashariy sifatlar, intilishlardan mutlaqo qutulgani, fonyi bo”lishi, ikkinchisi Hurriyat, tya’ni solihning o’z azaliy faqridan qutulib, asliy (zotiy) boyligiga yetishishi.

Uchinchidan, so’fiy siri (qalbi) musaffo, aqli muallo, fazli daryo, ko’ngli muhabbat ahdi bilan to’lgan odamdir. To’rtinchidan, so’fiy zohiri aloyiqlar kuduratidan (g’am. kulfatidan) uzoqlashgan, botini esa tafakkurga moyil odamdir, uning himmat ko’zi oldida oltin bilan tuproq teng bo’lmogi darkor. Beshinchidan, so’fiy dam (nafas) bilan topgan narsasiga qadam bilan yurib erishgan, ya’ni ilmul yaqin rutbasidan aynul yaqin rutbasiga taraqqiy eta olgan odamdir”

Husayn Voiz Koshifiy so’fiy deb nomlanganligiga, avvalo, ularning birinchi safda turganligi, ikkinchidan ular ashobi suffa (dunyo ishlaridan yuz o’girib oxiratni iqbol deb bilgan kishilar, ularning yuzi g’amdan sarg’ayib, sahardan shomgacha xudoga nola qilib zikr tushirganlar)ga tavallo qilgan zotlar ekanligi, uchinchidan safo so’zi bilan bog’liqligi, to’rtinchidan suhuf (biror narsaning xulosasi) so’zidan kelib chiqqanligi, beshinchidan esa ularning doim suf deb nomlagna kiyimda yurganligi bilan izohlaydi.

So’fiy so’zining harflarida esa quyidagi botiniy ma’nolar aks etganini ifodalaydi:

S- ko’ngil xilvatxonasini omon saqlash, ya’ni ko’ngil rozidan faqat do’st ogoh bo’lsin.

U sirning muhofazasi, ya’ni o’z sirini shunday saqlasinki, shaytonning g’oratgar qo’li unga yetmasin.

F- fayz olmoq va fayz yetkazmoq, ya’ni ma’rifatda o’zidan afzal kishilardan bahra olmoq va o’zidan noqis kishilarga bu ma’rifatni yetkazmoq

Y- yaqin, ya’ni shaksiz ishonch-e’tiqodga erishish.

O’z davrining mashhur shayx-u mashoyixlari hamda so’fiylari haqida ma’lumot beruvchi Alisher Navoiyning “Nasoyim ul muhabbat” tazkirasida barcha shayxlar qatori hazrat Bahouddin Naqshbandga shunday ta’rif beriladi: “...Va mutaxarrir mashoyixdin zamonining yagonasi Hazrat Xoja Bahouddin Naqshband q.r.a. ki, kimho naqshini bog’lamoqqa mashhurdirlar.” Navoiy shu o’rinda tarixda yashab o’tgan barcha ulug’ avliyo va mashoyixlarning halol luqma bilan kun kechirganliklariga urg’u beradi. Barchalari xalq ichida bo’lib, birovning haqqiga xiyonat qilmaydigan, toat-ibodatni vaqtida amalga oshiradigan solih bandalardan bo’lganligini aytadi.

So’fiylar haqidagi eng ishonchli rivoyatlar manbayidan yana biri bu Farididdin Attorning “Tazkirat ul avliyo” asaridir. Ushbu kitobda 70 ga yaqin so’fiylar haqida qimmatli ma’lumotlar berib o’tiladi. Xususan, Zunnun Misriyga shunday ta’rif

beriladi: “U toat ahlining peshvosi, qiyomat ahlining shami, saxovat dalili, ma’rifat sultonii, hidoyat ma’dani, faqirlar hujjati, zamona qutbi, tariqatakobirlaridan, tayhid sirlari Ichida benazir, rizoyat va karomatlari barkamol edi. Misr qavmining ko’prog’I uni “zindiq” der edilar. U vafot etguncha Misr qavmi u hazratni inkor etdilar. Buning uchunkim, xaloyiqqa o’zini yaramas ko’rsatar edi. Shunga qaramay, xalq ichida mardud va Alloh yonida maqbul”

Mansur Hallojga esa shunday ta’rif beradi: “Uning so’zlari juda ishtiyoqli, o’zi dardli, doimo jiddu jahl ichida, riyoza va karomat bobida komillik darajasiga yetgan, olihimmat va baland qadr, xaqoyiq va daqoyiqda, maoniy va maorifda, fasohat va balogat ichida tengi yo’q, tafakkuri va farosati kuchli edi. Ko’p mashoyixu akobir uning ishini qabul qilmay, rad etdilar. Ular tasavvuf ichida nasibasi yo’q dedilar. ...Uning ustozи Abulqosim Tustariy. Agar Mansur maqbul bo’lmasa, boshqa hech kim maqbul emas, der edi.”

“Nasoyim ul muhabbat” asarida Mansur Halloj haqida shunday fikr bildiriladi: “Va ul jumladin, shayx Husayn Mansur Halloj h.s.durki, bovujudi ul da’volar va bovujudi saloti xams adosidin boshqa bir kechalik kunduzlikda Shayx ul islom q.s. debdurki, ming ra’katnofila guzorlar erdi. Va alarga qatl bo’lg’on kunning kechasi besh yuz rak’at ado qilib erdilar”. Ushbu ta’riflardan ko’rinib turibdiki, Haq yo’lid abo’lgan, uning rizoligi uchun yashayotgan shayx-ul mashoyixlar umrining so’nggi nafasigacha shu maqsad bilan yashaydi.

Xulosa qilib aytganda, so’fiylarning antropologik ildizlari VIII asrlardan boshlanib, tasavvufiy g’oyalari bugungi kunga qadar o’z mazmun-mohiyatini yo’qotmasdan kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Najmiddin Komilov. Tasavvuf. Toshkent,- 2009
2. Husayn Voiz Koshifiy. Futuvvatnomayi sultoniy.-Toshkent,-1994
3. Alisher Navoiy. Nasoyim ul muhabbat. XX tomlik. 17-tom. Toshkent,-2001
4. Farididdin Attor. Tazkirat ul avliyo. Toshkent-2013.